XIX ASR QORAQALPOQ ADABIYOTIDA MUMTOZ SHOIRLAR IJODINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna
Qoraqalpoq davlat universiteti
Qoraqalpoq adabiyoti kafedrasi dotsenti (PhD)
tokimbetovag@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezisda XIX asr qoraqalpoq adabiyotining shakllanishi va taraqqiyoti, mumtoz shoirlar Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq va O‘tesh ijodining milliy adabiyot rivojidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu davr she’riyatining janriy xususiyatlari, xalq tarixi va ijtimoiy hayotining badiiy ifodasi hamda Sharq mumtoz adabiyoti an’analarining ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *lirika, mumtoz adabiyot, badiiy mahorat, an’ana, tarixiy voqelik, o‘zbek mumtoz adabiyoti, obrazlar dunyosi, g‘oyaviy-tematik aloqalar.*

KIRISH

O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotshunosligida mumtoz adabiyot namoyandalari ijodini o‘rganish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, XIX asr qoraqalpoq adabiyoti xalqning ijtimoiy-siyosiy hayoti, milliy ozodlik g‘oyalari va ma’naviy qadriyatlarini aks ettirganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davr adabiyoti milliy badiiy tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichini tashkil etadi.

XIX asr qoraqalpoq adabiyoti xalq tarixidagi murakkab ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllandi. Bu davrda xalq turli qiyinchiliklar, ijtimoiy tengsizlik va milliy ozodlik kurashlarini boshdan kechirdi. Mazkur voqeliklar adabiyotda o‘zining badiiy ifodasini topdi.

Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, o‘zbek mumtoz adabiyotining ta’siri qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Qoraqalpoq shoirlarining madrasalarda ta’lim olishi va madaniy aloqalari natijasida Sharq poetik an’analari milliy adabiyotga singib bordi. Shoir she’riyatining Navoiy va boshqa klassiklar ijodi bilan g‘oyaviy-tematik aloqalarini ochishga yo‘naltirilgan K.Mambetov, K.Quramboyev, Q.Jarimbetov, B.Genjemuratov, G.Davletovalarning maqolalari, tadqiqotlari nashrdan chiqdi va P.Allambergenovaning “Qoraqalpoq adabiyotida Maxtumquli an’analari (XIX asr qoraqalpoq adabiyoti misolida)” degan mavzudagi nomzodlik dissertatsiyasi bajarildi.

1990-yillardan boshlab Ajiniyoz shoir lirikasini o‘rganish yangi davr talablariga mos yangicha badiiy o‘lchovlar asosida olib borilmoqda. Bunday yangicha qarashlar dastlab f.i.d. H.Hamidovning “Sharq tillaridagi yozma manbalar va XIX asr qoraqalpoq shoirlari” monografiyasi, B.Genjemuratovning “Yor deb umrim ado bo‘ldi, bu ishlarni xudo qildi”, “Jahon adabiyoti maydonida Hojiniyoz Sadiy va Hofiz bilan teng”, “Har kim so‘fiy bo‘lsa nafsi kam bo‘lur...” maqolalaridan boshlanadi. Q.Jarimbetovning “Ochiq Ziywar” ilmiy ocherkida Ajiniyoz shoirning oshiqlik lirikasi o‘rta asr tasavvufiy adabiyotining badiiy talablari va mezonlari asosida tahlil qilindi. Olim Ajiniyoz she’riyatining o‘ziga xosliklarini izohlar ekan, qoraqalpoq xalqining XIX asrdagi

tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy sharoitlari, siyosiy tuzumi, madaniyati va adabiy muhitidan kelib chiqib tavsiflaydi. Bu yo‘nalishda yozgan eng dastlabki maqolasi “Ajiniyoz shoir ko‘knorni kuylaganmi?” deb atalib, unda Ajiniyozning “Qochqoch” she’rini o‘rta asrlik poeziyaning badiiy talablari bo‘yicha tahlil qilib, “Qochqoch” she’rida ko‘knorini tugatib, dovdirab turgan giyohvandning emas, balki ilmning ma’lum bosqichlarini yakunlab, uni endi qanday davom ettirish holatlarini o‘ylagan ilm oshig‘i ma’rifatparvar insonning obrazi tasvirlanadi,- degan xulosaga keladi.

Ajiniyoz she’riyatining obrazlar dunyosi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari S.Bahodirovaning “Ziyvor ayol-qizlarni kuylasa”, Z.Seytovaning “Ajiniyoz asarlarida ayol-qizlar obrazining tasvirlanishi”, K.Madreymovning “Ajiniyoz lirikalarida obrazlilik va ayol-qizlar portretini yaratishdagi mahorat”, K.Mambetovning “Ajiniyoz she’riyatida Sharq klassiklariga xos bo‘lgan miniatyura obrazlari” maqolalarida ochib beriladi.

Ajiniyoz ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar, asosan ilmiy mutaxassislar tomonidan qilingan. Ilmiy muammoli masalalar maqolalarda ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bu ilmiy izlanishlarning natijalari hozirgi vaqtda ajiniyozshunoslikning rivojlanayotgan ilm ekanligini ko‘rsatish bilan birga, ushbu ilm sohasi oldiga bir qator vazifa qo‘ymoqda.

Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li XIX asr qoraqalpoq adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. Uning ijodida insonparvarlik, vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik g‘oyalari yetakchilik qiladi. Shoir she’riyati janriy rang-barangligi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Ajiniyozning “Bo‘zatov” asari xalq taqdiri va tarixiy voqealarning badiiy ifodasi sifatida alohida ahamiyatga ega. Asarda xalq boshiga tushgan musibatlar, yurt dardi va vatan sog‘inchi chuqur badiiy tasvirlangan. Shoir ijodi nafaqat qoraqalpoq adabiyotshunosligida, balki xorijiy mamlakatlarda ham tadqiq etilgan. Uning adabiy merosi turli ilmiy izlanishlar orqali keng o‘rganilgan.

XIX asr qoraqalpoq adabiyotida lirik janrlar keng rivojlandi. Bu davrda og‘zaki ijod an’analari yozma adabiyot bilan uyg‘unlashib, yangi badiiy shakllarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Lirik qahramonning ichki kechinmalari, xalq taqdiri, muhabbat va hayot falsafasi she’riyatning asosiy mavzulariga aylandi. Individual lirik obrazlar va ta’sirchan badiiy ifoda vositalari mazkur davr she’riyatining muhim xususiyatlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr qoraqalpoq adabiyoti milliy adabiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu davrda ijod qilgan Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq va O‘tesh kabi mumtoz shoirlar xalq hayoti, tarixiy voqealar va ma’naviy qadriyatlarni yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirdilar. Ularning asarlari qoraqalpoq xalqining tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi va ma’naviy merosini saqlash hamda kelajak avlodlarga yetkazishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois XIX asr qoraqalpoq adabiyotini o‘rganish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мәмбетов К. Өзбек ҳәм қарақалпақ әдебий байланыслары. – Нөкис: Қарақалпақстан. 1992. – 180 б.
2. Пирназаров Ә. Мастерство Ажинияза. – Нукус, 1983. – 59 с.

3. Қурамбаев Қ. Взаимное обогащение литератур. – Нукус, 1993.
4. Жәримбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери ҳәм раўажланыў тарийхы. – Нөкис: Билим, 2004. – 188 б.
5. Генжемуратов Б. Әжинияз лирикасының поэтикасы. – Нөкис: Билим, 1997. – 53 б.
6. Алламбергенова П. Қарақалпақ әдебиятында Мақтумқулы дәстүрлери. – Тошкент: 2025. – 124 б.